

”Farhod va Shirin” dostoni haqida

Ashurova Minuraxon Xurshidbek qizi

Qo’qon universiteti Andijon filiali FTO’ uzbek tili 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumidagi ikkinchi dostoni — "Farhod va Shirin"ning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolada Farhod timsoli orqali Navoiyning "Komil inson" konsepsiyasi, mehnatga bo‘lgan yuksak munosabat va ma’naviy poklik masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, asardagi an’anaviy sharqona ishq va ijtimoiy adolat tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Xamsa, Farhod, Shirin, ishq, mehnat, komil inson, ma’naviyat, muloqot, insonparvarlik.

Аннотация: В данной статье исследуются идейно-художественные особенности второй поэмы цикла «Хамса» Алишера Навои — «Фархад и Ширин». Через призму образа Фархада анализируются концепция

«Совершенного человека» Навои, его отношение к созидательному труду и вопросы духовного очищения. Также рассматривается синтез традиционной восточной трактовки любви и принципов социальной справедливости в произведении.

Ключевые слова: Хамса, Фархад, Ширин, любовь, труд, совершенный человек, духовность, диалог, гуманизм.

Abstract: This article explores the ideological and aesthetic characteristics of "Farhad and Shirin," the second epic in Alisher Navoi's "Khamsa" cycle. Through the character of Farhad, the study analyzes Navoi's concept of the "Perfect Human," his high regard for creative labor, and themes of spiritual purity. Additionally, the article

highlights the synthesis of traditional Eastern interpretations of love and the principles of social justice within the masterpiece.

Keywords: Khamsa, Farhad, Shirin, love, labor, the perfect human, spirituality, dialogue, humanism.

Kirish: Sharq adabiyotining yuksak namunalaridan biri bo'lgan „Farhod va Shirin” dostoni Alisher navoiyning „Xamsa” asari tarkibiga kiritilgan eng mashhur ishqiy – sarguzasht dostoni hisoblanadi. Ushbu dostonda sevgi, fidoiylilik, jasorat va insoniy fazilatlar g'oyatda keng yoritib berilgan. Asarning bosh qahramoni bo'lmish

„Farhod va Shirin” o'z sevgisi yo'lida turli sinovlar va ayriliqlarga duch keladi va ularni mardonavor yengib o'tadilar. Ularning sevgisi ilohiy tuyg'ular bilan yog'rilgan.

Asarning mazmuni va tahlili. Ushbu asar 1484 – yilda yozilgan bo'lib, asarning asosiy qahramonlari Farhod va Shirindir. Farhod tug'ilganda qalbida ilohiy bir ishq bilan tug'iladi. Shirin esa go'zalligi, aqli va farosati bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan malikadir. Dostonning asosiy voqealari quyidagicha rivojlanadi:

1. Chin mamlakati shoxining be'farzandligi va Alloh ta'oloning marhamati ila unga o'gil farzandning ato etilishi.
2. Farhodning bolalaik vaqtlari – ilm – fan bilan shug'ullanib, mohir me'morbo'lib yetishishi .
3. Farhodning Shiringa oshiq bo'lishi va yo'ldagi sinov va ayriliqqa duchor bo'lishi.
4. Xusravning fitnalari – Shox Xusrav Shirinni sevib qolishi va Farhodga turli hiylalar ishlatishi.
5. Farhodning halok bo'lishi – ya'ni Xusrav yolg'on xabar yetkazishi natijasida Farhod turli hiylalar ishlatishi.
6. Shirinning fojeasi – sevgilisi o'limiga chiday olmagan Shirinning o'z joniga qasd qilishi.

Farhod — Komil inson timsoli:

Navoiy talqinida Farhod shunchaki bir oshiq emas, balki yuksak intellektual

salohiyatga ega muhandis, san'atkor va ma'naviy barkamol shaxsdir. U Xitoy xoqonining o'g'li bo'la turib, taxtdan ko'ra ilm va hunar yo'lini tanlaydi. Bu orqali muallif insonning qadri uning mansabida emas, balki uning ma'naviy dunyosi va qo'lidan keladigan hunarida ekanligini uqtiradi:

"Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib yer ostig'a ketgumdir oxir."

Mehnat va Matonat

Dostonda Farhodning Armaniiston tog'larini teshib, xalq uchun suv chiqarish yo'lidagi jasorati mehnatga qo'yilgan haykaldir. Uning uchun ishq — bu faqat ma'shuqa tomon intilish emas, balki el-yurt manfaati yo'lida fidoyilik ko'rsatishdir. Farhodning tosh yo'nuvchi ustalar bilan yelkadosh bo'lib mehnat qilishi, Navoiyning mehnatkash xalqqa bo'lgan cheksiz hurmatini ko'rsatadi.

Farhod va Xusrav: Ikki dunyoqarash to'qnashuvi

Asardagi Farhod va Xusrav o'rtasidagi savol-javob (munozara) sahnasi jahon adabiyotidagi eng kuchli dialoglardan biri hisoblanadi. Bu yerda podshohlik kibri bilan ishq va ma'rifat kuchi to'qnashadi. Xusravning boylik va kuch bilan yengishga urinishlariga javoban, Farhod mantiq va ruhiy ustunlik bilan javob qaytaradi:

Xusrav: "Qay yerdansan?"

Farhod: "Aslim — ishq shahridan, ammo vatanim — g'am mulki."

Shirin — Vafo va Iroda timsoli

Dostondagi Shirin obrazi ham o'zining mustaqil irodasi, sadoqati va aql-idroki bilan ajralib turadi. U shunchaki go'zallik timsoli emas, balki o'z yurti manfaati va sevgisi yo'lida mardona turib bera oladigan ayol qahramondir.

Asarning badiiy xususiyatlari. Ushbu doston o'zining tasviriy vositalari, majoziy ifodalari bilan ajralib turadi. Asarda shoir tajnis, tashbeh, istiora san'atlaridan keng foydalanilgan. Doston tilida lirika kuchli bo'lib, she'riy tasvirlar juda nozik va nafislik bilan qo'llanilgan. Asarda shuningdek, monolog va diologlardan keng foydalangan bo'lib bu asardagi obrazlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati juda katta mahorat bilan

ochib berilgan. Ushbu asarda ilgari surilgan muhabbat, jasorat, mardlik, mehnatsevarlik, ilm va hunar o'rganishga bo'lgan muhabbat orqali Farhod obrazi ochib berilgan. Hamda ushbu hislatlar Farhodning tabiiyatga aloqador bo'lgan hislatlardir. Farhodning halolligi, xalq manfaati uchun fidokorligi ijtimoiy qarashlarni ifodalaydi. Doston o'quvchining ma'naviy, axloqiy tozalikka, fidoiylikka, sof muhabbatga yetishishga da'vat etadi. Bular faqat individual axloqiy fazilatlar emas, balki ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan qarashlar hisoblanadi. Ushbu doston hozirda xalqimizning eng buyuk asarlar qatorida turadi. Shuningdek, bu asar shoir va yozuvchilar, adabiyotshunoslar tomonidan hozirgi kungacha qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda.

Xulosa: Farhod va Shirin dostoni muhabbat, sadoqat, adolat va insonlarga xos bo'lgan barcha ezgu fazilatlarni o'zida mujassam etgan buyuk asardir. Bu asardagi dolzarb muommolar va ezgu fazilatlar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu asarlar o'zbek adabiyoti, balki butun jahon adabiyotida bebaho o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, Farhod va Shirin. – Toshkent “Yoshlar matbuoti”, 2023.
2. Aziz Qayumov. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. - Toshkent : Fan, 1968.
3. Hadi Zarif. Alisher Navoiy va Xamsa an'analari. – Toshkent : Fan, 1970.
4. “Farhod va Shirin” dostoni haqida. Pedagoglar orq. uz sayti.